



QADIMGI ERON SIVILIZATSIYASINING VUJUDGA KELISHI SHART-SHAROITLARI

Otajonova Gulnoza Karimjon qizi

O`zMU Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Yaqin Sharq tarixida Eron sivilizatsiyasining o`rni va ahamiyati yoritilgan. Forslarning tarixiy sahnaga kirib kelishi davrida Mesopotamiya va Misr kabi qadimiy sivilizatsiyalar allaqachon uzoq madaniy an`analar va mustahkam davlat tizimlariga ega edi. Shunga qaramay, Eron hududida shakllangan yangi kuchoriy xalqlari asos solgan Fors imperiyasi, keng hududlarni birlashtirish, siyosiy barqarorlik va bag`rikenglik siyosati tufayli Yaqin Sharq tarixida yangi davrni boshlab berdi. Maqolada Eronning geografik sharoitlari, tabiiy resurslari, ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayonlari hamda diniy qarashlarning shakllanishi chuqur tahlil qilingan. Zardushtiylik dini va uning Fors imperiyasi siyosiy tizimi bilan o`zaro aloqasi, diniy ta`limotlarning keyinchalik butun mintaqa va jahon sivilizatsiyasiga ta`siri ham ko`rib chiqilgan. Tadqiqot shuni ko`rsatadiki, qadimgi Sharq sivilizatsiyasining markazining Eronga siljishi global tarixiy jarayonlarda burilish nuqtasini tashkil etib, keyingi davr madaniyati, dini va siyosiy tuzilmalariga katta ta`sir ko`rsatgan.

**Kalit so`zlar:** Qadimgi Yaqin Sharq, Eron sivilizatsiyasi, Fors imperiyasi, oriy xalqlari, Zardushtiylik, Ahamoniylar, Mesopotamiya, Misr, madaniyat, din, tarix, siyosiy barqarorlik, bag`rikenglik.

Yaqin Sharqning ko`hna sahnasida forslar paydo bo`lgan paytda, bobilliklar va misrliklar ko`p asrlik madaniy tarixga ega bo`lib, ularning vaqt sinovidan o`tgan tashkilotlari va urf-



odatları jamiyatda chuqur ildiz otgan, dinning obro'si bilan mustahkamlangan edi. Mesopotamiya Xammurapidan ancha ilgari ham qonunlar majmuiga ega bo'lgan. Misr madaniyati va sivilizatsiyasi esa xudo-fir'avnlarning buyuk davri abadiyatga yuz tutgandan keyin ham boshqa xalqlarga, xususan, eronliklarga ta'sir etishda yana uzoq vaqt davom etdi. Bu yerda markazlashgan imperiyalar va kichik davlatlar paydo bo'ldi, rivojlandi tanazzulga yuz tutdi¹. Ularning har biri, o'z navbatida, yuksaklikka ko'tarildi, olamning taqdirini belgiladi va vaqti kelganda sahnadan tushib, tarixning uzoq va qorong'u sahifalaridan o'z o'rnini egalladi. Endi Eronning davri kelgan edi.

Eron – qadimgi va yuksak rivojlangan sivilizatsiya mamlakati. Bu yerda yashagan xalqlar mil. avv. III ming yillik boshlarida o'z yozuvini, ming yillar davomida sayqal topib borgan noyob madaniyatini yaratganlar. Qadimgi eron dinlari Antik dunyo falsafiy dunyoqarashining shakllanishiga, xristianlikda va islomda esxotologik ta'limotlarning paydo bo'lishiga arzigulik ta'sir ko'rsatdi. Qadimgi va ilk o'rta asr fors adabiyoti namunalari arab, suriya, arman va boshqa qator tillarga tarjima qilindi, keyin esa – Uyg'onish davrida va undan so'ng – G'arb va Sharq adabiyotlaridagi ko'plab asarlar uchun manba va namuna bo'ldi. Qadimgi eronning ijodkor ustalari tomonidanyaratilgan san'at asarlari jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin egalladi.

Eron hududi keng yassi tog'liklardan iborat bo'lib, uning markazini keskin kontinental iqlimli unumsiz cho'l zonasi egallagan. Yassi tog'liklar va tog' tizmalari atrofida kichik daryolar va ularning irmoqlaridan suv oladigan, iqtisod va madaniyatning rivoji uchun qulay bo'lgan vohalar joylashgan. Eronning shimolida elbrus tog' tizmalari qad ko'tarib turibdi. Unga Turkman-Xuroson tog'lari tutashgan bo'lib, uning bir qismi O'rta Osiyodan o'tadi va Kopetdog' deb ataladi. Yassi tog'lik g'arb va janubi-sharq tomonlardan Zagros hamda G'arbiy Eron tog'lari bilan chegaralangan. Qadimda bu tog'larning yonbag'irlari yam-yashil o'rmonlar bilan qoplangan, tepaliklarda yovvoyi arpa o'sgan, tog' echkisi va qo'ylar o'tlab yurgan. Eronning

¹ Фрай Р. Наследие Ирана // <http://padabum.com/d.php?id=31668>



ko'plab hududlari sun'iy sug'orishni talab qiladi. Faqat janubi-g'arbiy qismi – Xuziston suv bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan, bu yerdan Qaruq va Kerxa daryolari oqib o'tadi, quruq iqlim va unumdor tuproq esa mo'l hosil olish imkonini bergan. Qazilma boyliklardan mis, temir, kumush va neft zaxiralari mavjud bo'lib, neftdan qadimda deyarli foydalanilmagan.

Mesopotamiya va Misrga nisbatan tabiati ancha noqulay bo'lgan bu hududda Qadimgi Yaqin Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xos yakuni bo'lgan Qadimgi eron sivilizatsiyasi shakllandi. Bu sivilizatsiya doirasida kelib chiqishi va hayot tarziga ko'ra turlicha bo'lgan ko'plab xalqlar faoliyat yuritishgan; aynan shu xalqlarning Fors imperiyasi hukmronligi ostida birlashishi va o'zaro hamkorligi mintaqa tarixining keyingi yo'nalishini belgilab berdi².

Qadimgi Sharq tarixiga butunligicha nazar solib, unda doimiy peshqadam bo'lgan biror-bir xalq yoki guruhni ajratib bo'lmaydi; ulardan har biri navbat bilan yetakchilik rolini egallab, tarixning shu davridagina o'z izini qoldiradi. Shu sababli Sharq tarixi juda murakkab bo'lib, uning bir butunligi turli xil unsurlarning sinteziga qurilgan. Bu sintez Fors imperiyasi boshqaruvi davrida o'zining to'liq va uzil-kesil ifodasini topadi. Bu imperiya qulashidan salgina oldin butun mintaqani o'z hukmronligi ostida birlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Amerikalik taniqli tarixchi Albert Olmstedning «Fors imperiyasi tarixi» nomli mashhur asari: «Mil. avv. 539 yili Kir Bobilga kirib kelganida, dunyo ko'hna edi. Va bundan ham muhimi, dunyo o'zining ko'hnaligini bilar edi. Bobil olimlari uzun sulolaviy ro'yxat tuzgan bo'lib, ularni oddiy jamlash ham hali haykallarini uchratish mumkin bo'lgan shohlargo'yo bundan oldin to'rt ming yildan ortiq hukmronlik qilganligidan dalolat beradi»³⁶, – degan so'zlar bilan boshlanadi. Darhaqiqat, Qadimgi Yaqin Sharq tarixi sahnasida eron paydo bo'lgan paytda bu tarix juda ko'hna bo'lib, o'z intihosiga yaqinlashayotgan edi. Shunga qaramasdan, aynan so'nggi inqiroz arafasida u juda katta hududni egallaydi, mustahkam birlikka va mislsiz qudratga

² Аджи М. Азиатская Европа/Мурад Аджи. –М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2008. –С. 526.

³ Альберт Олмстед. История Персидской империи. www.литмир.нет/6p/?6=151184. –С. 10.



erishadi. Hindistondan to Liviyagacha bo'lgan keng hududda ko'plab turli- tuman xalqlarni birlashtirgan yagona imperiya vujudga keladi; Ossuriya hukmronligi ostida ahyon-ahyonda paydo bo'lgan sintez, endi forslarning liberalizmi va bag'rikenglik siyosati tufayli barqaror jarayonga aylanadi. Bu olamshumul monarxiya, «yerning to'rt tomoni»ni birlashtirgan saltanat haqidagi konsepsiyaning orzudan reallikka aylanishi edi. Faqat g'arb bu birlashishdan tashqarida qoldi; shu sababli sivilizatsiyalar o'rtasida muqarrar va hal qiluvchi to'qnashuv uchun sharoit paydo bo'ldi⁴

O'tgan vaqt davomida tarix sahnasiga buyuk sulolalar birin- ketin kelib ketdi, ko'plab xalqlar almashdi, butun tarix davomida madaniyatlarning o'zaro ta'siri ko'zga yaqqol tashlanib turdi, madaniy inqilob esa Yaqin Sharqning barcha qismida bir xil yo'nalish bo'yicha yuz berdi. Yaqin Sharq necha marta chetdan bosqinga uchragan bo'lsa, u har safar yangi kelgan bosqinchilarda o'z madaniyatining izlarini qoldirdi. Erondagi Midiya davlati o'sha zamon kishilari uchun faqat Sharqning to'rtinchi buyuk imperiyasi, sinchkov yunonlar esa, ulardan oldingi mikenlar va minoylar singari, qadimgi sharqona madaniyatlarni o'rganayotgan kishilar bo'lib tuyulishi mumkin edi. Ammo voqealarning keyingi rivoji shuni isbotlashi lozim ediki, tarix sahnasida forslar va yunonlar paydo bo'lishi bilan Yaqin Sharq o'z tarixining hozirgi zamon bosqichiga qadam qo'ydi⁵.

Tarixning bu yangi bosqichida asosiy faol kuch qachonlardan beri eronning tog' yonbag'irlarida yashab kelayotgan, faqat mil. avv. I ming yillikka kelib kuchli siyosiy tashkilotni shakllantira olgan oriy⁶ xalqlari edi. Ular shiddat bilan o'zga yerlarni zabt etishga kirishdi. Bu Qadimgi Sharq mintaqasiga kirib kelgan hind-yevropa etnosining ikkinchi to'ldirini bo'lib, bu

⁴ Каранг: Москати Сабатино. Цивилизации Древнего Востока. –М.:ЗАО Издательство Центрполиграф, 2010. –С. 271.

⁵ Каранг: Альберт Олмстед. История Персидской империи. www.литмир.нет/бр/?6=151184. – С. 23.

⁶ Левин Г.Г., Федорова Л.Г. К вопросу арийства и тенгрианства. <http://тенгрифунд.ру/конференции/1-ая-конференция/к-вопросу-арийства-и-тангрианства>.



yerda tarixning maromini jadallashtirishga uringan oxirgi etnik kuch bo'ldi⁷. Oriy xalqlari borgan sari kuchayib, uddaburon va epchil bo'lib bordilar va oxir-oqibatda semitlar, misrliklar va egeylar dunyosini, butun ko'hna dunyoni bo'ysundirdi. Tashqi ko'rinishdan oriy xalqlari to'liq g'olib edilar, ammo ular bilan semitlar va misrliklarning mafkuralari va uslublari o'rtasidagi kurash hokimiyat oriylar qo'liga o'tgandan keyin ham uzoq vaqt davom etdi. Bu chinakam kurash bo'lib, butun keyingi tarix bo'ylab o'tadi va ma'lum ma'noda bizning davrimizda ham davom etmoqda⁸.

Xullas, shu tariqa chekka o'lka ustun kelib, markazni egallab oldi. Ming yillik tarixga ega bo'lgan vodiyni buyuk sivilizatsiyalari o'ta holsizlangan, borgan sari tez-tez sodir bo'layotgan inqirozlar ularning keksa organizmini katta tezlik bilan yemiribborayotgan edi. Bu davrga kelib tog' va sahro xalqlarining ham katalizatorlik funksiyasi tugadi – maqsadga erishilgach va mustaqil davlatlar barham topgach, ularning ham roli yakunlandi⁹.

Qadimgi Yaqin Sharq sivilizatsiyasi markazining eronga qarab siljishi, bu sivilizatsiya tarixining chegaralarini ham kengaytirdi va uning oldiga yangi vazifalarni qo'ydi: imperiyaning boshqa bir chekkasida, g'arbida, chegaralar hayotiy muhim nuqtada – Bosforda kesishgan bir paytda, O'rta va Uzoq Sharqqa tomon yo'l ochildi. Haliharbiy inqirozdan oldin Qadimgi Sharqni boshqalardan ajratib turuvchi, uning tarixini belgilovchi geografik chegaralar va ular singari Qadimgi Sharq deb ataluvchi birlikning o'zi ham barham topdi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yakuni dunyoqarashning inqirozida, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi; insonni o'rab turgan dunyo, Olam konsepsiyasi darz ketdi. Yahudiylar taklif qilgan butun borliqning Yaratuvchisi, yagona, o'zgarmas va abadiy xudo to'g'risidagi yangi konsepsiya butun Qadimgi Sharq bo'ylab o'ziga yo'l ochib bordi.

⁷ Г. Чайлд. Арийцы. Основатели европейской цивилизации. –М.: ЗАО Центрполиграф, 2009. – С. 25–30.

⁸ Уэллс. Г. История цивилизации: В 2 кн. Кн.1: От зарождения жизни до возникновения христианства. –М.: ТЕППА – Книжный клуб, СПб.: Северо-Запад, 2009. –С. 99–100.

⁹ Москати Сабатино. Цивилизации Древнего Востока. –М.: ЗАО Издательство Центрполиграф, 2010. –С. 157–270.



Keyin zamon va makonga ko'ra markazdan ancha uzoqda joylashgan Eron eski konsepsiyani butunlay parchalash uchun oxirgi zarbani beradi; u faqat siyosiy emas, etnik chegaralarni ham yengib o'tishga qodir bo'lgan axloqiy normalarni o'rnatadi.

Buning isboti sifatida zardushtiylik dinining Fors imperiyasi shakllanishi va rivojlanishiga bog'liq bo'lmagan holda tarqalishini aytish mumkin. Aynan shu sababli eron sivilizatsiyasining ikki yo'li – siyosiy va diniy yo'llari o'rtasidagi munosabatda muammo paydo bo'ladi; shunga qaramasdan, ma'lumki Qadimgi Sharq endi davlatlar mavjudligi bilan bog'liq bo'lmagan dunyoqarashni paydo qilish qudratiga ega edi. Bu uning buyuk muvaffaqiyati, ayni paytda, katta mag'lubiyati va intihosining boshlanishi bo'ldi¹⁰.

Aynan endi dinning rivojlanishi davlatga bog'liq bo'lmay qolgan bir paytda, ruhning yuksaklikka erishishi hech qandaysiyosiy hokimiyat bilan bog'liq emasligi ayon bo'lib qoldi. To'g'rirog'i, aksincha, shunday taassurot hosil bo'ldiki, din rivojlangan sari u bilan davlat o'rtasidagi ziddiyat kuchayib boradi va bu ziddiyat chuqurlashib, inqirozni yuzaga keltiradi: Ahamoniylarga xos bag'rikenglikning zardushtiycha monoteizm bilan almashinuvi xalqlar o'rtasida o'zaro dushmanlik hissini paydo qildi va oxir-oqibatda imperiyaning halokatiga olib kelgan asosiy sabablardan biriga aylandi.

¹⁰ Москати Сабатино. Цивилизации Древнего Востока. –М.: ЗАО Издательство Центрполиграф, 2010. –С. 272.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агаев С.Л. Иран между прошлым и будущим: События. Люди. Идеи. М., 1987
2. Аджи М. Азиатская Европа/Мурад Аджи. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2008. –С. 526.
3. Альберт Олмстед. История Персидской империи // www.litmir.net/br/?b=151184.
4. Акимушкин О.Ф. (отв. ред.) Очерки истории культуры средневекового Ирана. Письменность и литература . - М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1984. – 267 с.
5. Акимушкин Олег. Очерки истории культуры Средневекового Ирана. Москва: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1984. — 267 с.
6. Акимушкин О.Ф. Средневековый Иран. Культура, история, филология. СПб.: Наука, 2004. — 404 с.
7. Большаков О.Г. Средневековый город Ближнего Востока. М. 1984.
8. Васильев В. История Востока 2-том. М., 2004.
9. Вигасин А., Дандомаев М. История Древнего Востока. Учебник. М., 2001.
10. Грантовский З.А. Ранняя история иранских племен Передней Азии. М. 1970.
11. Грантовский Э.А. Иран и иранцы до Ахеменидов. М., 1998.
12. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. М, 1980.